



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 5-son

VOLUME 4 / ISSUE 5 / 2024
DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.5.



ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI**

"Yurisprudensiya"

"Юриспруденция" – "Jurisprudence" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Olyi ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Olyi attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo'yicha mas'ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

Sh. Jahonov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev, K. Abdulyanova, Y. Mahmudov, M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Jurnal 24.10.2024-yilda bosmaxonaga topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 12 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 152.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

MAS'UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (Boston, AQSH)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

X. Xayitov – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

I. To'raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

S. Xolboyev – O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi (Toshkent, O'zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

J. Ne'matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O'zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция - Yurisprudensiya - Jurisprudence» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:
Ш. Жахонов, Е. Ярмолик,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Й. Махмудов, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова

Корректор:
С. Расулова

Технический редактор:
У. Сапаев

Дизайнер:
Д. Ражапов

Адрес редакции:
100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
Подписной индекс: 1387

Журнал передан в типографию 24.10.2024.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 12. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 152.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев - доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров - доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов - доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум - доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый - профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов - доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева - доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов - доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев - доктор философии по юридическим наукам, и. о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев - кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Верховном судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова - доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова - доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов - доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов - доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров - кандидат филологических наук, и. о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

Sh. Jakhonov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev, K. Abduvalieva, Y. Makhmudov, M. Sharifova, Sh. Beknazarova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Subscription index: 1387.

The journal is submitted to the Printing house on 24.10.2024.
Paper size: A4.
Cond. p.p. 12. Unit: 100.
Order: 152.

Published in Printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

A. Khoshimxonov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Axmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

X. Xayitov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

S. Xolboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Raxmonkulova – Associate Professor of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

8 **ODILQORIYEV HOJIMUROD TO'XTAMURODOVICH**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining mamlakatda konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlashdagi roli va ahamiyati

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

19 **XUDAYBERGENOV BEXZOD BAXTIYOROVICH**

Qurilish pudrati shartnomasining huquqiy tabiatini bilan bog'liq xorijiy davlatlar qonunchiligi

28 **SAYDIVALIYEVA XURSHIDA XODJIAKBAROVNA**

Oilada mulkiy nizolarni sudgacha hal etishning alternativ vositasi sifatida oilaviy huquqiy shartnomalarning yuridik tabiatini

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOIY TA'MINOT HUQUQI

40 **RAXIMOV MIRYOQUB AKTAMOVICH**

Mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni taqiqlash prinsipining ayrim jihatlari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLİSH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

54 **KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA**

Yaroqli va yaroqsiz jinoyatga suiqasd qilish

70 **YUSUPOVA FARINGIZ O'KTAM QIZI**

Sog'lioni saqlash sohasida shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashning huquqiy jihatlari

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

78 **ALISHAYEV SOBIR TURSUNBOYEVICH**

Sun'iy intellekt va tahliliy tizimlarni hukm chiqarishda qo'llash: istiqbollar va muammolar

92 **SHONAZAROV ABDUVALI SHONAZAROVICH**

Qalbakilashtirilgan hujatlarni va qimmatli qog'ozlarni aniqlashda e'tibor berilishi zarur bo'lgan jihatlar

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.02 – КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО. ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО

8 **ОДИЛКОРИЕВ ХОДЖИМУРОД ТУХТАМУРОДОВИЧ**

Роль и значение Конституционного суда Республики Узбекистан в обеспечении конституционной законности в стране

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

19 **ХУДАЙБЕРГЕНОВ БЕХЗОД БАХТИЁРОВИЧ**

Законодательство зарубежных государств относительно правовой природы договора строительного подряда

28 **САЙДИВАЛИЕВА ХУРШИДА ХОДЖИАКБАРОВНА**

Правовая природа семейно-правового договора как альтернативное средство разрешения семейных имущественных споров до суда

12.00.05 – ТРУДОВОЕ ПРАВО. ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

40 **РАХИМОВ МИРЁКУБ АКТАМОВИЧ**

Некоторые аспекты принципа запрещения дискриминации в сфере труда и занятий

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

54 **КАМАЛОВА ДИЛДОРА ГАЙРАТОВНА**

Годное и негодное покушение на преступление

70 **ЮСУПОВА ФАРИНГИЗ УКТАМ КИЗИ**

Правовые аспекты обеспечения безопасности персональных данных в сфере здравоохранения

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА. ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО. СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

78 **АЛИШАЕВ СОБИР ТУРСУНБОЕВИЧ**

Применение искусственного интеллекта и аналитических систем при вынесении приговора: перспективы и вызовы

92 **ШОНАЗАРОВ АБДУВАЛИ ШОНАЗАРОВИЧ**

Аспекты, которые необходимо учитывать при обнаружении поддельных документов и ценных бумаг

CONTENTS

12.00.02 – CONSTITUTIONAL LAW. ADMINISTRATIVE LAW. FINANCE AND CUSTOMS LAW

8 **ODILQORIEV KHOJIMUROD TUKHTAMURODOVICH**

Role and significance of the Constitutional court of the Republic of Uzbekistan in ensuring constitutional legality in the country

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

19 **KHUDAYBERGENOV BEHZOD BAKHTIYOROVICH**

Legislation of foreign countries on the legal nature of the construction contract

28 **SAYDIVALIEVA KHURSHIDA KHODJIAKBAROVNA**

The legal nature of family-legal contracts as an alternative means of pre-trial solution of property dispute in the family

12.00.05 – LABOR LAW. THE LAW OF SOCIAL SECURITY

40 **RAKHIMOV MIRYOQUB AKTAMOVICH**

Some aspects of the principle of prohibition of discrimination in the field of work and training

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY. CRIMINAL PROCEDURAL LAW

54 **KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA**

Viable and unviable attempt to commit a crime

70 **YUSUPOVA FARINGIZ UKTAM KIZI**

Legal aspects of ensuring the security of personal data in the field of healthcare

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. CRIMINOLOGY, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

78 **ALISHAEV SOBIR TURSUNBOEVICH**

Application of artificial intelligence and analytical systems for sentencing: prospects and challenges

92 **SHONAZAROV ABDUVALI SHONAZAROVICH**

Aspects to consider when detecting fake documents and securities

Kelib tushgan / Получено / Received: 9.10.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 18.10.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.10.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.5./QATH7992

UDC: 347.934(045)(575.1)

QALBAKILASHTIRILGAN HUJJATLAR VA QIMMATLI QOG'OZLARNI ANIQLASHDA E'TIBOR BERILISHI ZARUR BO'LGAN JIHATLAR

Shonazarov Abduvali Shonazarovich,
Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi
ORCID: 0000-0003-2729-526X
e-mail: abduvalicrimelaw@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada hujjatlarni qalbakilashtirish va qimmatli qog'ozlarni soxtalashtirish holatlarini aniqlashda e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlar yoritilgan. Hujjatlarni qalbakilashtirish va qimmatli qog'ozlarni soxtalashtirish bilan bog'liq jinoyatlar hozirgi kunda eng keng tarqalgan jinoyatlar sirasiga kiradi. Texnologik innovatsiyalar rivojlangani sari ulardan foydalanish imkoniyatlari ham oshib bormoqda. Ayniqsa, bugungi kunda hujjatlar haqiqiyligini saqlavchi xavfsizlik choralarining yuqori darajada bo'lismiga qaramay, texnologiyalar sababli ularni qalbakilashtirishning yangi usullari paydo bo'lmoqda. Hujjatlarni soxtalashtirish jinoyatini o'rganish uning nafaqat ijtimoiy xavfli ekanligi, balki shaxsga va davlatga yetkazadigan zararini hisobga olgan holda nihoyatda dolzarbdir. Qimmatli qog'ozlarni qalbakilashtirish bilan bog'liq jinoyatlar esa davlatning iqtisodiy siyosatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy muvozanatni buzish, ortiqcha pullar va boshqa qimmatli qog'ozlar ko'payib ketishiga sabab bo'lmoqda. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish yuzasidan xorijiy tajribadagi dolzarb jihatlar bayon etilgan. Shuningdek, hozirda keng tarqalgan qalbaki hujjatlar va pullarni aniqlashning xalqaro usullari keltirilgan. Jamiyat taraqqiyotining jadal rivojlanishi davlat siyosatidan tortib boshqaruv tizimining quyi pog'onalarigacha ish yuritishning zamon talablariga javob bera oladigan usullari qo'llanishini talab qiladi. Qimmatli qog'ozlarni aniqlashda e'tibor berilishi zarur bo'lgan metod va usullarni o'rganish hamda amaliyotda joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: qimmatli qog'ozlar, erkin qo'l simulyatsiyasi, badiiy qalbakilashtirish, identifikatsiya, yorug'lik detektorlari, "Mormon" hujjati, chek yozuvlari.

АСПЕКТЫ, КОТОРЫЕ НЕОБХОДИМО УЧИТЬ ВАТЬ ПРИ ОБНАРУЖЕНИИ ПОДДЕЛЬНЫХ ДОКУМЕНТОВ И ЦЕННЫХ БУМАГ

Шоназаров Абдували Шоназарович,
преподаватель Кашкадарьинского областного
юридического техникума

Аннотация. В данной статье освещены аспекты, которые следует выявить в случаях подделки документов и ценных бумаг. Преступления, связанные с подделкой документов и ценных бумаг, относятся к числу наиболее распространённых преступлений в наше время. По мере роста технологических инноваций растёт и их доступность. Особенно в наше время,

несмотря на высокий уровень безопасности, обеспечивающий подлинность документов, посредством современных технологий совершенствуются и способы их подделки. Исследование преступления подделки документов чрезвычайно актуально не только с точки зрения общественной опасности данных преступлений, но и ущерба, который они наносят личности и государству. Преступления, связанные с подделкой ценных бумаг, подрывают экономическую политику государства, в то же время они вызывают дисбаланс в экономике, увеличение избыточных денег и других ценных бумаг в государстве. В статье описана также передовая зарубежная практика по устранению вышеобозначенных проблем. В ней также представлены современные методы идентификации подделок документов и денег, которые распространены в мире. Бурное развитие общественного развития требует применения во всех сферах, начиная от государственной политики и заканчивая самой нижней ступенью системы управления, методов делопроизводства, отвечающих современным требованиям. Важно изучить и внедрить на практике методы и приемы обнаружения подделки ценных бумаг.

Ключевые слова: ценные бумаги, имитация от руки, художественная подделка, идентификация, световые детекторы, документ мормонов, записи в чеках.

ASPECTS TO BE CONSIDER WHEN DETECTING FAKE DOCUMENTS AND SECURITIES

Shonazarov Abduvali Shonazarovich,
Teacher of Law College of Kashkadarya Region

Abstract. This article highlights the aspects that need to be identified in cases of document forgery and securities forgery. Crimes related to forgery of documents and counterfeiting of securities are among the most common crimes in modern times. As technological innovation increases, so do the possibilities of its use. Especially in modern times, despite the high level of security that preserves the authenticity of documents, there are ways to forge them due to technology. The study of the crime of forgery of documents is extremely relevant not only in terms of the social danger of this situation, but also in terms of its harm to both the individual and the state. Crimes related to counterfeiting securities undermine the state's economic policy and, at the same time, disrupt the economic balance, leading to an increase in excess money and other securities in the state. The article presents current aspects of foreign practice in addressing the aforementioned problems. It also describes international methods for identifying forged documents and money, which are currently common. The rapid development of society requires the application of methods that meet modern requirements in all spheres, from state policy to the lowest level of the management system. It is important to study the methods and techniques that need to be considered when identifying securities, and to implement them in practice.

Keywords: securities, free-hand simulation, art forgery, identification, light detectors, mormon document, receipt records.

Kirish

Hujjatlar bilan ishslash tergovning boshqa turlaridan dolzarbligi bilan ajralib turadi. Hujjatlar bo'yicha mutaxassis grafologdan farq qiladi: u qo'l yozuvi namunalari asosida yozuv egasining shaxsiyatini o'rganadi.

Barmoq izlari singari, har bir insonning yozuvi noyob va o'ziga xosdir. Umuman olganda, hujjatlarni qalbakilashtirish va qimmatli qog'ozlarni soxtalashtirish bilan bog'

liq jinoyatlarni tergov qilishda tergovchining tekshiruv jarayonini shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Hujjatlarni tayyorlashda qo'llangan usul va materiallarni aniqlash uchun o'tkaziladigan tekshiruv. Bu jarayonda hujjatlarni yaratishda ishlatilgan uskunalar, chop etish va nusxa ko'paytirish qurilmalari, shuningdek, hujjat tayyorlashda foydalanilgan materiallar identifikatsiya qilinadi.

2. Hujjatlarni qalbakilashtirish usullarini o'rganish. Bu tekshiruvda hujjatning to'liq yoki qisman qalbakilashtirilganligi aniqlanadi, ya'ni tergovchi hujjat yaratilgan yoki unga o'zgartirish kiritilganligi faktini aniqlaydi.

3. Hujjatlarning guruhiy tegishliligi va diagnostikasini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan tekshiruvlar. Bunda yoqilgan, o'chirilgan, rangsizlantirilgan yoki maxfiy yozuvlar mavjud bo'lган hujjatlar tahlil qilinadi [1].

Hujjatlarni soxtalashtirish bilan bog'liq jinoiy javobgarlik tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XV bobi ("Boshqaruva tartibiga qarshi jinoyatlar") 228-228¹-moddalarida belgilangan. Ushbu moddalarda hujjatlarni soxtalashtirish uchun qanday turdag'i jazo qo'llanishi, tartibi hamda qo'llanadigan jazolar miqdori aniq belgilab qo'yilgan.

Xorijiy davlatlar qonunchiligidagi ham hujjatlarni qalbakilashtirishga aloqador javobgarlik belgilangan. Masalan, Yaponiya jinoyat qonunchiligidagi bu turdag'i huquqbazarliklar uchun alohida bob ajratilgan. Yaponiya Jinoyat kodeksining 155-moddasida rasmiy hujjatlarni soxtalashtirganlik hamda qalbakilashtirganlik jinoyati uchun umumiylajvobgarlik o'rnatilgan. Ushbu moddaga ko'ra, rasmiy hujjatlarni chop etish vakolatiga ega tashkilotlarning ruxsatisiz, qonunga xilof ravishda, ularga tegishli rasmiy hujjatlarni qalbakilashtirib chop etgan shaxslar javobgarlikka tortiladi. Shuningdek, mazkur moddaning ikkinchi qismiga binoan, rasmiy hujjatlarni asl holatidan farqli ko'rinishga keltirish yoki ularni o'zgartirish va ulardan foydalanganlik uchun alohida javobgarlik belgilangan.

Yaponiya Jinoyat kodeksining O'zbekiston Jinoyat kodeksidan yana bir muhim farqi shundaki, unda faqat rasmiy hujjatlarni soxtalashtirish uchungina emas, balki norasmiy, ya'ni xususiy korxona va tashkilotlarga tegishli hujjatlar, shtamplar hamda belgilarni qalbakilashtirganlik uchun ham jinoiy javobgarlik belgilangan [2].

AQSh jinoyat qonunchiligidagi soxtalashtirish hamda qalbakilashtirishning uch bos-

qichda sodir etilishi haqida aniq ta'rif keltirilgan. Birinchi bosqichda soxtalashtiruvchi shaxs hujjatni o'ziga ma'lum biror shaxsga ko'rsatadi yoki undan foydalananadi. Ikkinci bosqichda soxtalashtiruvchi shaxs asl nusxadagi hujjatni yasaydi yoki qalbakilashtirib, unga egalik qiladi. Oxirgi bosqichda shaxs fagatgina soxta ekanligi ma'lum bo'lgan, ammo o'zi yaratmagan hujjatga egalik qiladi. Ushbu uch bosqichning har biri jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanadi. Shunday qilib, turli mamlakatlar jinoyat qonunchiligin o'ziga xos shaklda ishlab chiqqan bo'lib, har biri o'z qonunchiligiga etnik kelib chiqish, an'ana hamda odatlar, madaniyat hamda mamlakatdagi ijtimoiy munosabat darajasiga qarab yo'naliш belgilab oladi [3].

Hujjatlarning texnikaviy tekshiruvi o'z oldiga qo'yilgan alohida vazifalar bilan tavsiflanadi. Kriminalistik texnik tekshiruv obyektlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- turli hujjatlarda tadqiq qilinuvchi rekvizitlar (matn, imzo, pul-to'lov hujjatlari, qimmatbaho ashyoviy boyliklarni sotib olish yoki sotish kabi harakatlarni ifodalovchi hujjatlar, shaxsiy hujjatlar, ma'lumotnomalar va boshqalar);

- pul-to'lov hujjatlari, naqd pul kirimi va to'lovi bo'yicha turli operatsiyalarni aks ettiruvchi hujjatlar, masalan, chek daftarchasi, kirim-chiqim orderlari, kassa daftarchasi, to'lov hujjatlari, turli kvitansiyalar va deponent kartochkalari [4].

Moddiy boyliklar harakatini aks ettiruvchi hujjatlarga yuk xatlari (nakladnoy), kirim-chiqim xarakteridagi barcha hujjatlar to'plami kiradi. Shaxsiy hujjatlar esa shaxsni tasdiqlovchi va uning mehnat faoliyatiga oid hujjatlarni o'z ichiga oladi, masalan, pasport, shaxsiy guvohnoma, ruxsatnama, harbiy guvohnoma, kasaba uyushmasi biletleri, haydovchilik guvohnomasi, diplomlar va boshqalar [3].

Mehnat faoliyatiga doir hujjatlar tarkibiga mehnat daftarchasi, mehnat faoliyati haqidagi ma'lumotnomalar, kasallik varaqalari,

ishga qabul qilish va ozod etish haqidagi buyruqlar, shartnomalar, taklifnomalar, shaxsiy varaqalar, kasallik tarixi va shu kabi boshqa hujjatlar kiradi [5].

Qimmatli qog'ozlar zayom obligatsiyalari, lotereya chiptalari, temiryo'l va havo yo'llarining pulli chiptalari, tomosha va mai-shiy xizmat chiptalari hamda qog'oz pul banknotlarini o'z ichiga oladi. Tekshiruv obyektlariga hujjatlardan tashqari yozuv vositalari va ashayolari, hujjat rekvizitlari va belgilarini tayyorlashda foydalilaniladigan turli bo'yoqlar, qog'oz, yozuv qurollari, yelim va yozuvni o'zgartirishga mo'ljallangan moddalar kiradi [6].

Qo'l yozuvini yashirish va soxtalashtirish qiyin bo'lganligi sababli bunday qalbakilash-tirishni aniqlash mushkul. Ko'plab omillar tufayli har bir kishining yozuvi o'ziga xos va xilma-xillikdir. Turli yozuv qurollari – qalam, ruchka va boshqalar insonlarning yozuv uslubiga ta'sir qiladi.

Qo'lyozmalar turi ko'p bo'lishiga qaramay, har bir kishi o'zining individual yozuv uslubiga ega. Ya'ni yozuvlar barmoq izlari kabi takrorlanmasdir. Yozuvning kattaligi, o'lchami, aylanalar shakli va sahifaning qanchalik to'ldirilganligi shaxsiyatni aniqlashga yordam beradi.

Yosh bolalarda yozuv uslublari unchalik ko'p emas, chunki bolalar ma'lum davrgacha o'xshash yozuv uslublarini o'rganadi. Inson o'z odatlari orqali shaxsiy xarakterini shakllantirib, ixtiyoriy ravishda yozishni boshganda, yozuvning individuallik xususiyati paydo bo'ladi [7].

Material va metodlar

Qalbakilashtirilgan hujjatlarning asl nusxasi, uni tayyorlash vaqt, usullari va vositalari, qalbakilashtirish alomatlari, ko'rinnmas va kuchsiz ko'rindigan yozuvlarni aniqlash, yonib ketgan hujjatlar va undagi ma'lumotlarni qayta tiklash zarur. Qalbaki hujjatlarni aniqlashda *oddiy qalbakilashtirish, erkin qo'l si-mulyatsiyasi, kuzatuv, badiiy qalbakilashtirish* kabi metod va usullardan foydalilanildi.

Tadqiqot natijalari

Soxtalashtirish belgilar. Hujjatlarni qalbakilashtirish va qimmatli qog'ozlarni soxtalashtirish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda tergovchi o'ta sinchkov va ziyrak bo'lishi lozim. Chunki tergovchi qarori asosida ekspertiza tayinlanadi hamda ekspert oldiga tegishli savollar qo'yiladi. Agar tergovchi ekspert oldiga to'g'ri savollar qo'ya olsa, jinoyatni aniqlash va fosh qilish osonlashadi. Shuning uchun ham hujjatlar va qimmatli qog'ozlar bilan ishlaganda, yozuv egasining psixologik o'zgarishlarini aniqlay olish muhimdir. Sekin va uslubiy zarbalar qalbakilash-tirishning eng keng tarqalgan belgilaridan biridir. Odamlar o'z qo'li bilan, o'z uslubida yozganda, yozuv, odatda, tez amalga oshadi. Yozishda xatolar kuzatilishi mumkin, lekin ular har doim ham tuzatilmaydi. Biror kishi yozuv uslubi yoki imzoni nusxalashni, odatda, sekin va uslubiy tarzda qiladi. Natijada yozuvda juda kam yoki hech qanday xatolik-siz juda tekis chiziqlar hosil bo'ladi [9].

Qalam bosimining o'zgarishi ham hujjatda-gi qalbakilikning eng keng tarqalgan belgilaridan biridir. O'yamasdan tez yozilganda, qalam bosimi har xil bo'ladi. Tez yozishda matnda qattiq va qalin chiziqlar bilan bir qatorda yengil va ingichka chiziqlar ham paydo bo'la-di. Bu, o'z navbatida, yozuvning noaniqligi va qalbakilashtirilganligini ko'rsatishi mumkin.

Agar kimdir sizning yozuvningiz yoki imzo-yingizni nusxalashga harakat qilsa, u belgilarni yanada ehtiyyotkorlik bilan shakllantiradi va qalam bosimida hech qanday o'zgarishsiz tekis chiziqlar hosil qiladi. Bunday hollar-da yozuvda asabiyashganlik yoki stressdan kelib chiqqan titroq sezilishi mumkin. Asl qo'lyozmani soxta qo'l yozuvi bilan solishtir-ganda, stress, qo'rquiv, tibbiy holat yoki boshqa omillar tufayli farqlarni sezish mumkin.

Amerikalik mutaxassis, soxta hujjatlar va qo'lyozmalar eksperti Keti Carlson shunday deb ta'kidlaydi: "Hujjatlarni qalbakilashtirish, hujjatlar va imzolardagi soxtalikni aniqlashning turli usullari mavjud. Men soxta narsalarni aniqlash

uchun turli vosita va usullardan foydalanaman. Soxta narsalarni qo'l yozuvi, imzolar va raqamli manipulyatsiyalarda topish mumkin” [8].

Keti Karlson soxtalashtirishni quyidagi turlarga ajratadi:

Oddiy qalbakilashtirish: bu juda oddiy va kam harakat bilan amalgalashiriladigan jarayondir. Kimdir biror narsa yozadi yoki hujjatga imzo qo'yadi, ammo qo'l yozuvi yoki imzoning ma'lum namunasiga amal qilishga urinmaydi. So'ngra shu yozuv yoki imzoni boshqa birovga tegishli asl hujjatning asl nusxasi sifatida topshirishga harakat qiladi.


Erkin qo'l simulyatsiyasi: erkin qo'l simulyatsiyasi yordamida amalgalashirilgan qalbakilashtirish oddiy soxtalashtirishga qaraganda biroz rivojlangan. Biror kishi qo'l yozuvi yoki imzosining namunalariga tayanib, uni erkin tarzda simulyatsiya qilishga harakat qiladi. Shu orqali u soxta qo'lyozma va imzolarni shakl va uslub jihatidan asl nusxasiga yaqinlashtirishga urinadi.

Kuzatuv: bu jarayonda imzo izlash usullaridan foydalanish orqali nusxa ko'chirilgan soxta imzo yoki qo'lda yozilgan matnning eng aniq yoki ko'zga ko'ringan xususiyatlari ni ko'paytirishga harakat qilinadi. Ko'p marta kuzatilgan imzolar va yozuvlar asl imzo yoki matn bilan to'liq mos kelishi mumkin. Yorug'lik jadvallari kabi turli usullar yordamida matnlarni solishtirib, hujjatlarni qalbakilashtirishga doir dalillarni aniqlash mumkin.

Tadqiqot natijalari tahlili

Odatda, soxtalashtirish va qalbakilashtirishdan asosiy maqsad moddiy foyda olishdir. Amerika tarixida qalbakilashtiruvchilar ko'plab hujjatlar va qimmatli qog'ozlarni soxtalashtirgan. Ular orasida 1900-yillarda AQShda yashagan firibgar Martin Konnelly alohida o'rinn egallaydi. U 1937-yilda Avraam Linkolnning soxta xatlarini sotib, muayyan muddat davomida moddiy manfaat olib yurgen. Biroq keyinchalik Konnellyning jinoyati Amerika Maxfiy Xizmati tomonidan fosh etilib, u hibsga olingan va uch yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan. Bugungi kunda u

soxtalashtirgan hujjatlar muzeyda kolleksiya buyumlari sifatida saqlanmoqda [10].



1-rasm. Martin Konnelly Avraam Linkolnning yozuvlari va imzosini soxtalashtirgan

Amerikaliklar yiliga 70 milliarddan ortiq chek yozadi va har kuni taxminan 27 mln dollar miqdorida soxta pullar aniqlanib, fosh qilinadi. Shu jumladan:

- depozit varaqasidan boshqa birovning cheklariga buyurtma berish;
- chekni bevosita o'zgartirish;
- birovning chekini ushlab qolib, uni o'zgartirish va naqdashtirish;
- noldan soxta cheklar yaratish kabi jinoyatlar yuz beradi.

Soxtalashtirilgan qimmatli qog'ozlarni aniqlash. XXI asrda jamiyatning har bir a'zosi o'z xatti-harakatlarining qonuniyigini ta'minlash uchun hujjatlarga murojaat qilishi odatiy holga aylangan. Hujjatlardan keng foydalanish esa jinoyatchilar e'tiborini tortishi tabiiydir. Shu bois huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun bunday jinoyatlarni aniqlash, fosh qilish va profilaktika ishlari olib borish birinchi navbatda qilinishi lozim bo'lgan vazifalardan sanaladi. Chunki texnologiyalarning yangi avlodlari bunday jinoyatlarning sodir etilishini ancha yengillashtirib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 176-moddasiga ko'ra, qalbaki bank biletleri (banknotlar), metall tangalar, aksiz markalar, shuningdek, qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasi yoki chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar yasash yoki ularni o'tkazish bilan shug'ullanish javobgarlikka sabab bo'ladi. Qimmatli qog'ozlarni soxtalashtirishning ijtimoiy xavfi shundaki, qalbaki pul yoki qimmatli

qog'ozlarning yaratilishi mamlakatning pul-kredit tizimini izdan chiqaradi, inflyatsiya jarayonlarini vujudga keltiradi va rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bu esa davlatning iqtisodiy tizimida o'zgarishlar ro'y berishiga olib keladi. Bundan tashqari, bunday jinoyat davlatning pul ishlab chiqarish va zARB qilish huquqini buzadi.

Mutaxassislar ko'pincha qo'lda chizilgan yoki oddiy poligrafik usulda nusxa ko'chirilgan pullarni tekshiradi. Hozirda zamnaviy printerlarda, jumladan, lazerli nusxa ko'chirish yoki purkovchi printerlarda pullarni qalbakilashtirish holatlari ko'paymoqda. Ekspertlar esa qalbakilashtirilgan qimmatli qog'ozlar va pul banknotlarini aniqlashda qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Buning sababi haqiqiy pul banknotlarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan turli xil ranglar, bo'yoqlar va himoya vositalari, shuningdek, pullarni zARB qiluvchi texnikalar tarkibi haqidagi to'liq ma'lumotning yetishmasligidir.

Qalbakilashtirilgan qimmatli qog'ozlarni aniqlash juda murakkab emas. Qalbakilashtirilgan pullarni aniqlashda yodli markerlar va ruchkalar yordam beradi. Bu vositalar qalbaki pul banknotlariga tekkan zahoti qog'ozning rangi to'q ko'k rangga o'zgaradi. Rangning o'zgarishi deyarli barcha printerlarda mavjud bo'lgan kraxmal moddasi bilan bog'liq kimyoviy reaksiyadan kelib chiqadi. Biroq haqiqiy pul banknotlari tarkibida kraxmal moddasi mavjud emas.

Ko'plab qimmatli qog'ozlar ipak tolasi qo'shilgan maxsus qog'ozlardan ishlab chiqariladi. Agar qalbakilikni aniqlovchi maxsus ruchka bilan haqiqiy pul banknotiga chizilsa yoki yozilsa, unda artsa ketadigan xira sariq rangli iz qoladi. Ishlab chiqaruvchilarning ta'kidlashicha, qalbakilikni aniqlashda ishlataladigan ruchka 98 foiz samarali. Biroq AQSh hukumati bunday samaradorlikni tan olmaydi va qalbakilikni aniqlashda o'zining boshqa qo'shimcha mezonlaridan foydalanishni afzal ko'radi. Bu mezonlar muhim hisoblanaadi, chunki ba'zi qalbakilashtiruvchilar pulni tayyorlashda kichik kupyuralardan foydal-

nadi. Masalan, pulni qalbakilashtiruvchilar \$1 kupyurasini \$50 yoki \$100 kupyuralarga qayta chop etadi. Bunday pullar qalbakilikni aniqlash testlaridan o'tsa ham, sifat jihatidan haqiqiy pullarga mos kelmaydi. Shuningdek, dunyo bo'y lab polimer pullar yoki plastik pullarga o'tish harakati davom etmoqda. Plastik pullarni qalbakilashtirish qiyin bo'lsa-da, ularni chop etish unchalik qimmat emas [11].

Hozirgi kunda qimmatli qog'ozlarni soxtalashtirish keng tarqalgan jinoyatlar sirasiga kiradi. Odatda, bunday jinoyatlar bilan shug'ullanuvchi shaxslar texnik bilimlarga ega bo'ladi, masalan, graverlik, poligrafiya, fotosuratga olish, sinkografiya va boshqalar. Ular qalbakilashtirishda foydalaniladigan materiallar, asbob-uskunalar bilan ishslash huquqiga ega shaxslar bo'lib, yuqori tezlikda nusxa ko'chirish texnikasi va poligrafiya sohasiga qiziqishlari mavjud. Bundan tashqari, bunday shaxslar muqaddam davlat mukofotlari, shtamplar, muhrlar va boshqa shu kabi hujjalarni qalbakilashtirganligi uchun sudlangan bo'lishi mumkin [12].

Haqiqiy pul banknotalarida mavjud ba'zi belgilari 10 AQSh dollarari misolida ko'rsatilgan (2-rasm).



2-rasm. 10 AQSh dollarlik banknotasi

1. Orqa fonda portret ajralib, yaqqol aks etgan va uni qog'ozda aniq ko'rish mumkin.

2. Portret atrofida, shuningdek, ingichka tolalar ustida juda kichik mikroprintlash alopatlari mavjud.

3. Seriya raqami bir xil kenglikda joylashgan va Treasure seal raqami bilan bir xil rangda.

4. Chek belgilari va kvadrant raqami mavjud.

5. Federal Reserve seal emblemasi ajralib turmaydigan ko'rinishda.

6. Treasure seal emblemasi aniq va ajralib turadigan tasvirga ega.

7. Kupyura yuzasida to'qilgan aniq ko'rinishidan qizil va ko'k tolalar.

8. Federal Reserve raqami va yozuvi.

9. Seriyalar.

10. Kupyura portretining o'ng tomonida xira bosma shrifti, nurda ko'rinishidan ultra-shrifti va yorqin rangdagi moybo'yoq belgilari mavjud.

Shuningdek, chek yozuvlari va Face Plate raqami mavjud. Yangi kupyura seriyalari qiya buklanganda, uning pastki o'ng tomon burchagidagi raqamlar kumush rangidan yashil rangga o'zgaruvchi siyoh yordamida belgilanadi. Chegara chiziqlari aniq va yaqqol ko'rindi [13].

Germaniya, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya kabi bir qator rivojlangan davlatlarda ushbu turdag'i jinoyatlarni tergov qilish huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari tomonidan sun'iy intellekt (ChatGPT5) va turli xil veb-saytlar orqali (analyticsindiamag.com, neuralword.com, amygb.ai, ondato.com) amalga oshirilmoqda.

Badiiy qalbakilashtirish. Badiiy qalbakilashtirish qadimiyoq qo'lyozmalar yoki boshqa yozuv namunalarini soxtalashtirishdir. Mashhur shaxslar, masalan, Adolf Hitler, Albert Eynshteyn, Charlz Darvin kabilar tomonidan yozilgan qo'lyozmalar doim qadrla va noyob bo'lib kelgan. Eng olg'ir badiiy qalbakilashtiruvchilar original (asl) hujjatning dublikatini yaratishga urinadi, shuning uchun unda foydalanilgan materiallar asl nusxdagi materiallar bilan deyarli bir xil bo'lishi kerak. Buni amalga oshirish uchun ular o'z tajribalari davomida tahlil qilgan hujjatlar, kitoblardan kesib olingan eski hujjatlarni yig'ib, soxtalashtirilgan hujjatlar yaratadi. Chunki hujjatlarni qo'lida ishlab chiqarish jarayoni o'zgargan [14].

Jinoyatchilar uchun eski qo'lyozmalarni mikroskopik tekshiruvdan o'tkazish juda muhimdir. Siyohlarning turi ham vaqt o'tishi bi-

lan o'zgarishi mumkin, shuning uchun qalbakilashtiruvchilar go'yoki o'sha davrda yaratiganidek ko'rinishi uchun yangi siyoh bilan eski qo'lyozmalarda ishlatilgan siyoh namunalarini aralashtiradi.

Qo'lyozmani sun'iy ravishda eskirtirish uchun moybo'yoqlar ishlatiladi. Garchi chop etish texnologiyasi butun dunyoda ommaviy bo'lsa-da, qo'lyozma va qalamkashlik uslubi hali ham mashhur. Hujjatlarni sun'iy usulda eskirtirish uchun kimyoviy usullar ham qo'llanadi. Kimyoviy vositalar siyohga ham, qog'ozga ham birdeq qo'shiladi.

I have been, & appear in part of the early publications as stipulated for at the time of sale. I can only account for such an extraordinary circumstance by supposing that Mr. by some inadvertence, to have been lost, & that was the case, am willing to supply you with another copy if you are disposed to do so. You will, I suppose, be no further delay when it comes into your hands. I will not leave my power here, particular care to command this copy before the month of August, but then, if you accept my proposal, & make arrangements for receiving it. It is good as to do one's duty in a timely & convenient manner, as one stays in that place will not exceed a few days. Thank

3-rasm. Hujjatlarni sun'iy eskirtirish uchun moybo'yoqlardan foydalanilgan

1980-yillarda hujjatlarni soxtalashtiruvchi usta Mark Hofmann mazkur usuldan foydalanib, juda ko'p hujjatlar yaratgan. Hujjatlarni soxtalashtirishdan tashqari, u tangalar va banknotlarni ham qalbakilashtirgan. Hofmann eng mashhur qalbakilashtirgan hujjati "Mormon" hujjatining yo'qolgan 116 sahifasining yaratilishi bo'lgan. So'ngra u ushbu sahifalarni Mormon kollektorlariga katta mablag' evaziga sotgan.

Hofmann, shuningdek, Emili Dikson, Avraam Linkoln va Mark Tvenlarga aloqador ishlarni ham soxtalashtirib, o'z ishlari safiga qo'shib qo'ygan. 1985-yilda u Mormon hujjatlarining boshqa bir kolleksiyasini qalbakilashtirishni rejorashtirgan, ammo qalbakilashtirishni amalga oshirish imkonsiz bo'lib qolganidan so'ng bilib qolishlaridan qochib, bir portlovchi modda yaratadi. Natijada Mormonning biznes lideri, begunoh Stiven Kristensen va uning hamkorasi Gary Shitning rafiqasi Kesi Shitlari o'ldiriladi. Uchinchi bomba Hofman-

ning mashinasida portlab, unga jiddiy jarohatlar yetkazadi. Bu hodisa politsiya e'tiborini Hofmannga qaratadi. Tergov davomida uning barcha jinoyatlari fosh qilinadi. U qotillik va qalbakilashtirish jinoyatlari uchun javobgarlikka tortilib, hozirda jazoni o'tamoqda [15].

Xulosalar

Shunday qilib, qalbakilashtirilgan hujjatlar va qimmatli qog'ozlarni soxtalashtirish bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda xorij amaliyotidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarini egallash, shuningdek, rivojlangan davlatlarda-gi (AQSh, Germaniya, Yaponiya) metodlarni mamlakatimizda joriy etish juda muhimdir. Qalbakilashtirilgan pullarni identifikatsiya qilishda ishlataladigan zamonaviy texnik qurilmalar (lazerli printerlar, lazerli nusxa ko'chirish yoki purkovchi printerlar), vositalar hamda kimyoviy elementlarni mamlakatimizga olib kelish va joriy etish bu turdag'i jinoyatlarni fosh etish, profilaktika qilishda samarali natijalarga erishishda yordam beradi.

Yuqoridagilar orqali mavjud muammo-larga yechim topish mumkin. Hozirgi kunda texnologiyalar rivojlanib borgani sari sun'iy intellekt inson qilishi mumkin bo'lgan ko'plab ishlarni tezroq va sifatliroq bajarmoqda. Hujjatlarni identifikatsiya qilishga yordam beradigan ko'plab platformalar va vebsaytlar mavjud. Tergovchilar va ekspertlarning ana shunday platformalar va veb-saytlardan (analyticsindiamag.com, neuralword.com, amygb.ai, ondato.com) kengroq foydalanishi maqsadga muvofiq.

Hujjatlarni qalbakilashtirish va qimmatli qog'ozlarni soxtalashtirish bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlashda tergovchi faoliyatini takomillashtirish va tergov ishini yanada yengillashtirish uchun, avvalo, moddiy-texnik bazani kuchaytirish zarur. Bu kabi ishlarni amalga oshirish mamlakatimizda ushbu turdag'i jinoyatlarning oldini olish hamda unga qarshi samarali kurashishda muhim ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. Kriminologiya [Criminalistics]. Tashkent, TSUL Publ., 2018.
2. Japanese Criminal Code. Chap. falsification of documents.
3. Penal Code chap. 470 PC - California "Forgery" Laws. US criminal law.
4. Carlson K. Certified, Court Qualified Forensic Document Examiner. Available at: <https://www.westernforensicsdocumentexaminer.com>
5. Saferstein R. Criminalistics: An Introduction to Forensic Science, Global Edition. Forensic science Introduction to criminalistics, 2015, vol. 11, p. 59.
6. Bashir A. Techniques in Detecting Forgery in Identity Documents. Sudan, 2017, The 5th Sudan Conference on Computer Science and Information Technology (SCCSIT'17) El-Nuhoud, Sudan.
7. Miller M.D. Forensic Handwriting and Signature Analysis. 2021.
8. Federal crime of counterfeiting money – 18 U.S.C. § 471. US Federal Law.
9. Carlson K. Sort of forgery. 2009. United Nations World Food Programme, Rome.
10. Khadim U. An Intelligent Three-Level Digital Watermarking Method for Document Protection. Mehran University Research Journal of Engineering and Technology, 2021, vol. 40, no. 2, p. 323.
11. Federal laws on counterfeit united states currency. Eisner Gorin LLP is committed to answering your questions about Criminal Defense law issues in Los Angeles, California.
12. Hoepman J.H., Jacobs B. E-passports without the big picture. Radboud University Nijmegen, Netherlands Publ., 2006.
13. Wigger E. Criminalistic Techniques - Guidelines for Criminologists. 2004.
14. Al-Ameri M.A.A., Mahmood B., Ciyylan B., Amged A. Unsupervised Forgery Detection of Documents: A Network-Inspired Approach. Graduate School of Natural and Applied Sciences, Gazi University, Ankara, Turkey, 2023.
15. Hoffmaan M. Forgery of detectives. 2018.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 5-SON

VOLUME 4 / ISSUE 5 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.5.